

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MURTAZAEV ISABEK BAZARBAEVICH

**ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARI O‘RTASIDA IQTISODIY
MUTANOSIBLIKNI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor (DSc)
on economical sciences**

Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Zarafshon mintaqasi hududlari o'rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash
yo'nalishlari..... 3

Муртазаев Исабек Базарбаевич

Направления обеспечения экономической пропорциональности между
территориями Зарафшанского региона 33

Murtazaev Isabek Bazarbaevich

Directions for ensuring economic balance among the territories of the
Zarafshan region 63

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 69

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MURTAZAYEV ISABEK BAZARBAYEVICH

**ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARI O‘RTASIDA IQTISODIY
MUTANOSIBLIKNI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025-yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.1.DSc.Iqt666 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi

Mambetjanov Kaxramon Kurbandurdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro‘zmetov Baxtiyar
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Valiev Bobur Batirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yavmutov Dilshod Shoimardonkulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli Ilmiy Kengashning ____yil _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; (99871) 246-02-24, faks (99871) 246-90-80; ye-mail: rector@nuu.uz

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100114, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-90-80, ye-mail: rector@nuu.uz

Dissertatsiya avtoreferati ____yil _____ kuni tarqatildi.

(____yil _____dagi -raqamli reestr bayonnomasi)

A.M. Sodiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

X.X. Rejapov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.V. Vaxabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy nomutanosibliklar, siyosiy va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi mamlakatlar taraqqiyotining milliy va mintaqaviy mutanosibligini ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. "Ishlab chiqarish omillari, transport-logistika tizimi, inson kapitali hamda bozor infratuzilmasi hududlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanganda, mamlakat miqyosidagi iqtisodiy o'sish drayverlari o'rtacha 15-20 foizga zaiflashadi. Jahon mamlakatlaridagi iqtisodiy muammolar va global geosiyosiy vaziyat ta'sirida iqtisodiy o'sish dinamikasi 2030-yilgacha o'rtacha 2-3 foizdan oshmasligi prognoz qilinmoqda"¹, Shu bois jahon mamlakatlarida mintaqalararo iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash - resurslarni oqilona taqsimlash, tarmoqlararo uzviylikni mustahkamlash va hududiy ixtisoslashuvni to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mintaqalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining mutanosibligini ta'minlash masalalari global muammo sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini kamaytirish, mintaqalarni barqaror va mutanosib rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining sifat ko'rsatkichlarini baholash uslubiyatini takomillashtirish, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)ni amalga oshirishda global hamda milliy maqsadlarning hududiy darajada implementatsiya qilish, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish orqali sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy mutanosibligini optimallashtirish muammolari ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda hududiy rivojlanishni tezlashtirish, industrial asoslarni kengaytirish, kichik biznes va xizmatlar sektorini qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan, "...hududlar o'rtasida tarmoqlar kesimida nomutanosibliklar, resurslar taqsimotida samarasizlik, investitsiyalar va innovatsiyalar oqimining haddan tashqari konsentratsiyasi"² kabi muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan Zarafshon mintaqasi hududlari mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega makon sifatida alohida e'tiborni tortadi. "Mintaqada sanoat, agrar tarmoqlar, xizmatlar hamda qayta tiklanuvchi energiya loyihalari bir vaqtning o'zida jadal rivojlantirish"³ muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqaning Navoiy viloyatida sanoat salohiyati yuqori konsentratsiyalashgan bo'lsa, Samarqand viloyatida xizmatlar va turizm sohasi tez sur'atlarda kengaymoqda, Buxoro viloyatida esa agrar ixtisoslashuv yetakchi o'rinni egallab turibdi. Bu holat mehnat resurslari migratsiyasi, logistika xarajatlari, qo'shilgan qiymat zanjiridagi uzilishlar va investitsiya salmog'ining hududiy nomutanosibligi kabi muammolarning kelib

¹ World Bank (2023). World Development Report: Migrants, Refugees, and Societies. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2023>

² World Bank (2023). Uzbekistan Systematic Country Diagnostic: Pathways to Inclusive Growth. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/933471650320792872/pdf/Toward-a-Prosperous-and-Inclusive-Future-The-Second-Systematic-Country-Diagnostic-for-Uzbekistan.pdf>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyuldagi PQ-276-son "Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 300 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish investitsiya loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/7035044>

chiqishiga zamin yaratadi. Shuning uchun "...Zarafshon mintaqasi iqtisodiyotini mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda mutanosib rivojlantirish, hududlar sanoatini diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xizmat ko'rsatish sohasini yuqori darajaga olib chiqish"⁴ masalalari ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 06-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2024-yil 12-dekabrda PQ-430-son "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 22-iyuldagi PQ-276-son "Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 300 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 05-martdagi PQ-116-son "Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida quvvati 300 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini hamda havo elektr uzatish tarmog'ini qurish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 05-noyabrdagi PQ-383-son "Navoiy viloyatida mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 10-fevraldagi PQ-52-son "2023-2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son "2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-apreldagi 222-son "2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Hududlar o'rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash masalalari jahon ilmiy hamjamiyatida mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy o'sish va hududiy boshqaruv nazariyalari doirasida keng tadqiq etilmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), shuningdek yetakchi ilmiy markazlar - Garvard, London iqtisodiyot maktabi

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son "2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/5988219>

(LSE), Oksford, Kembrij, Stanford, va Tokio universitetlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Hududlar o‘rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash yo‘llarini ishlab chiqish, uning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish hamda ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha jahon miqyosida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida qator muhim ilmiy xulosalar olingan. Jumladan, mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta‘minlashda markaz-periferiya modelining takomillashtirilgan shakllari ishlab chiqilgan (London iqtisodiyot maktabi, Buyuk Britaniya); hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda “inklyuziv o‘shish” mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan (Jahon banki va OYECD, 2022-y.); klaster siyosati va smart ixtisoslashuv orqali iqtisodiy resurslarning hududiy taqsimotini muvozanatlashtirish yo‘llari ishlab chiqilgan (Yevropa Ittifoqi ilmiy markazlari, 2021-2024-yy.); shuningdek, mintaqaviy rivojlanishning institutsional boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish orqali iqtisodiy mutanosiblikka erishish omillari tahlil qilingan (Oksford universiteti, Buyuk Britaniya).

Hozirgi davrda dunyo miqyosida hududlar o‘rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash masalasida mintaqaviy rivojlanish siyosatini institutsional mexanizmlar asosida takomillashtirish; iqtisodiy resurslarni hududlar kesimida mutanosib taqsimlash, mintaqaviy klasterlar va “smart ixtisoslashuv” strategiyasi orqali innovatsion o‘shish nuqtalarini shakllantirish; ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish orqali mintaqalararo tafovutlarni kamaytirish yo‘llarini aniqlash kabi yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar hududiy muvozanatga erishishda innovatsion rivojlanish va boshqaruv tizimining uzviy integratsiyasi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqa iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari uzoq xorij olimlaridan mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari V.Isard A.Lyosh, I.Tyunen, A.Veber, zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot va innovatsion rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi P.Krugman, F.Masaxisa, M.Porter, R.Florida, A.Rodriguyes-Pos, F.Agxion, R.Kamagini, innovatsion hududlar va klasterlar hamda mintaqaviy barqarorlik muammolari R.Martin, P.Sunley, R.Sternberg, K.Xukning ilmiy izlanishlarida o‘rganilgan.

Shu bilan birga hududlarni mutanosib rivojlantirishning amaliy jihatlari yaqin xorij mamlakatlari olimlari izlanishlarida ham tadqiq etilgan. Jumladan, mintaqaviy siyosatni yuritishning ustuvor yo‘nalishlari V.Leksin, A.Shevsov, O.Treyvish, Ye.G.Yasin, S.A.Anatolev, I.G.Akperov, A.V.Buzgalin, V.V.Gluxov, mintaqaviy muvozanat va mutanosib rivojlanish masalalari A.Tatarkin, Ye.Animatsa, Yu.Lavrikova, V.I.Vidyapin, A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiyev, A.I.Leontev, T.Yu.Morozova, N.N.Mixeeva, I.A.Rodionova, mintaqaviy integratsiya va globallashtirish muammolari N.Zamyatina, V.Lappo, E.Libanova, V.Vaxitov, L.Labadze, D.Kruk, T.Chubrik⁵ va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

⁵ Шупер В.А. Экономический ландшафт Августа Лёша // География. №21, -Искусство, 2006. -С 32-34. <https://geo.1sept.ru/article.php?ID=200602111>.; Sverker Sörlin. Hägerstrand as historian: innovation, diffusion and the processual landscape. Landscape Research. Volume 45, 2020 -Issue 6. -P. 712-723. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/01426397.2020.1790506>.; Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и

O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyot, hududiy mutanosiblikni ta'minlash, mintaqalarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari A.M.Sodiqov, T.M.Ahmedov, S.S.Zokirov, Sh.X.Nazarov, A.V.Vaxabov, Sh.Sh.Shodmonov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, A.M.Qodirov, T.T.Jo'rayev, B.R.Ro'zmetov, A.A.O'rinov, F.T.Egamberdiyev, O.X.Hamirayev, A.V.Mamatqulov, E.Sh.Shadmanov, A.T.Yusupov⁶ va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Biroq, bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida Zarafshon mintaqasi hududiy mutanosibligini ta'minlashda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ixtisoslashuvini takomillashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot ishi yuqorida qayd etib o'tilgan jihatlariga asosiy e'tibor qaratilganligi bilan boshqa shu kabi ishlardan farq qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №F-1-101

обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е.Калининой. -М.: «Альпина Паблишер», 2008 (2 изд. -2008). -720 с.; Rossi U. Growth poles and growth centers // International Encyclopedia of Human Geography. 2009. V. 4. -P. 651-656.; Пеппу Ф. Экономическое пространство: теория и приложения // науч. журнал «Пространственная экономика». 2007. № 2. -С. 77-93.; Кругман П. Пространство: последний рубеж // Пространственная экономика, 2005. №3. -С. 97-135.; Roberta Capello & Andrea Caragliu "After Crisis Scenarios for CEECs: A simulation through the MASST3 model" ERSA conference papers ersa14p171, European Regional Science Association. 2014. <https://ideas.repec.org/p/wiw/wiwsa/ersa14p171.html>.; Гранберг А.Г., Суслов В.И. Изучение пространственного развития экономики в системе межрегиональных межотраслевых взаимосвязей // Оптимизация территориальных систем // под ред. С.А. Суспицына; ИЭОПП СО РАН. -Новосибирск, 2010. -Введение, п. 4. -С. 29-38. http://lib.ieie.su/docs/2010/Optimizaciya_territorialnyh_sistem_2010_1_Vvedenie.pdf.; Гаджиев Ю.А. Зарубежные теории регионального экономического роста и развития // Экономика региона №2. 2009. -С. 45-62. <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnye-teorii-regionalnogo-ekonomicheskogo-rosta-i-razvitiya/viewer>.; Леонтьев А.И., Новикова Н.В. Региональная проекция теории полюса роста: зарубежный и российский опыт // Теоретическая и прикладная экономика. -2020. №4. -С. 106-117. DOI: 10.25136/2409-8647.2020.4.34019 URL:https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=34019.; Михеева Н.Н. Долгосрочные прогнозы регионального развития: анализ результатов и проблемы разработки // Проблемы прогнозирования. - 2018. №5. -С. 24-37.; Морозова Т.Ю. Институциональная среда антикризисного управления: уроки глобального кризиса // Наука. №2. 2011. -С. 92-101. <https://cyberleninka.ru/article/n/institutsionalnaya-sreda-antikrizisnogo-upravleniya-uroki-globalnogo-krizisa/viewer>.; Родионова И.А. Мировая промышленность: структурные сдвиги и тенденции развития (вторая половина XX - начало XXI вв.): монография. -М.: ГОУ ВПО МГУЛ, 2009. -231 с. <https://studfile.net/preview/6447943/>.

⁶ Абдусаломов М.А. О целях и методологических основах региональной политики // Современные проблемы региональной экономики, материалы научно-методологического семинара. ТГЭУ. -Т.: 2015. -С. 6-11.; Ахмедов Т.М. Долгосрочная стратегия развития урбанизации в Узбекистане. // Стратегическое планирование - важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов. -Т.: IFMR, 2019. -С. 349-353. <https://ifmr.uz/files/pages/ru/416110.pdf?file=/files/pages/ru/416110.pdf>.; Вахабов А.В., Хажикабиев Ш.Х. Жахон амалиётда инновацион ривожланиш тажрибаси ва уни Узбекистонда қўллашнинг айрим жиҳатлари // Иқтисод ва молия. №11, 2016. -Б. 2-10.; Mamatkulov A.V. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan // "Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan's development strategy". Tashkent, 2018.; Nazarov Sh.X. O'zbekiston mintaqalari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -Т.: 2016. -93 б.; Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. -Т.: 2018. -45 с.; Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. Ташкент, Фан. 2002. -220 с.; Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация // Монография. Ташкент, "Узбекистан", 2019. -511 с.; Soliyev A.S., Qurbonov Sh.B. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ba'zi bir masalalari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 47-jild. -Т., 2016. -В. 20-26.; Эгамбердиев Ф.Т. Региональные особенности развития агропромышленного производства в условиях либерализации экономики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. - Т.: 2003. -35 с.; Юсупов А.Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. - Т.: 1991. -38 с.; Qayumov A.A., Usmanov Z.K. Yangi ipak yo'li iqtisodiy koridorini shakllantirishda O'zbekiston va Xitoy hamkorligi // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 49-jild. -Т., 2017. -В. 69-72.

“Globallashuv sharoitida mintaqalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligi o‘rishiga metodologik yondashuvlar” mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot granti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlar iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

mintaqalarda iqtisodiy mutanosiblik va uni ta‘minlash bo‘yicha nazariy qarashlarni tanqidiy tahlil qilish;

mintaqada iqtisodiy mutanosiblikning buzilish sabablari va uni aniqlash mezonlarini ilmiy asoslash;

hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy mutanosiblikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini tadqiq qilish;

Zarafshon mintaqasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-resurs salohiyati va undan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

mintaqada sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari darajasining o‘zgarish dinamikasini tahlil etish;

Zarafshon mintaqasi hududlarida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblikka ta‘sir etuvchi omillar orasidagi bog‘liqlikni tahlil etish;

mintaqa hududlarida sanoat tarmoqlari o‘rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash yo‘nalishlarini aniqlash;

Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida mutanosiblikni ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Zarafshon mintaqasi hududlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Zarafshon mintaqasi iqtisodiyoti tarmoqlari olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib hududlar iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish va guruhlash usullari, qiyosiy va dinamik tahlil, tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, statistik tahlil, prognozlashtirish, iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqa hududlarida ishlab chiqarish omillari taqsimotini optimallashtirishga Samarqand viloyatining Nurobod, Navoiy viloyatining Nurota va Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanlarida faoliyat yuritayotgan yirik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari tomonidan shamol, mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishni davlatning monetar vositalari yordamida rag‘batlantirish orqali erishish taklifi asoslangan;

mintaqada tog‘-kon va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashga Navoiy viloyatining Uchquduq, Karmana va Nurota tumanlarida foydalanishga jalb etilmagan konlarni ishga tushirish hamda u yerda yaratilgan xomashyoni Samarqand viloyatining geografik joylashuvi va ishchi kuchi resurslaridan kelib chiqqan holda Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Paxtachi tumanlarida tayyor

qurilish materiallari sifatida qayta ishlash sanoatini tashkil etish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Zarafshon mintaqasi hududlarida sanoat ishlab chiqarish va agrar sektor o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga Navoiy viloyatining Nurota, Navbahor, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarini bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashtirib, ularda yetishtirilgan mahsulotlarini Samarqand viloyatining Jomboy va Oqdaryo tumanlarida meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish asosida qayta ishlash orqali erishish taklifi asoslangan;

mintaqa hududlarida xizmat ko'rsatish sohalarini mutanosib rivojlantirishga Navoiy viloyatining Tomdi va Uchquduq tumanlarida "Safari", Muruntov koni hududida sanoat turizmi hamda Nurota tumanidagi Chashma, Chelak tumanidagi Imom Buxoriy, Buxoro shahri atrofidagi "Yetti pir" ziyoratgohlarini bir halqaga jamlash asosida ziyorat turizmini tashkil etish orqali erishish taklifi asoslangan;

mintaqada sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida mazkur tarqmoqlarni rivojlantirishning 2029-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotining hududiy jihatlari aniqlangan hamda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanish tendensiyalari baholangan;

Zarafshon mintaqasi hududlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan;

mintaqa hududlarining sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ixtisoslashuvi hamda hududiy mutanosibligini takomillashtirishning asosiy muammolari aniqlangan, ularning yechimiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berilgan;

hududlarda iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashda ortda qolayotgan tumanlarni mavjud tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanish orqali rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

Zarafshon mintaqasi YAHMning o'sish sur'atlari bilan sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, investitsiya, bandlik va boshqa omillar o'rtasidagi bog'liqlikdan kelib chiqqan holda, ekonometrik modellashtirish asosida o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keng doiradagi yondashuvlar o'rganilganligi, iqtisodiy tadqiqot usullaridan samarali foydalanilganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari statistika boshqarmalari rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar davomida olingan va ilgari surilgan nazariy hamda uslubiy yondashuvlardan muammoga oid ilmiy tadqiqotlarning metodologik

asoslarini hamda ilmiy mexanizmini takomillashtirish, mintaqani mutanosib rivojlantirish dasturlari va ustuvor yoʻnalishlarini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati asosida olingan xulosa va tavsiyalardan Zarafshon mintaqasida sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish tarmoqlari ixtisoslashuvini takomillashtirish, hududlar oʻrtasida iqtisodiy mutanosiblikni taʼminlash strategiyasi hamda dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek oliy taʼlim tizimida tegishli yoʻnalishlarda, “Oʻzbekiston milliy iqtisodiyoti”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Iqtisodiy geografiya va ekologiya”, “Iqtisodiyot nazariyasi” fanlari boʻyicha oʻquv materiallarini takomillashtirish va oʻqitish jarayonida foydalanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zarafshon mintaqasida sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish tarmoqlarining ixtisoslashuvi va hududiy mutanosibligini taʼminlash mexanizmini takomillashtirish boʻyicha takliflar asosida:

Samarqand viloyatining Nurobod, Navoiy viloyatining Nurota va Buxoro viloyatining Gʻijduvon tumanlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan shamol, kichik gidroelektr stansiyalarini qurishni ragʻbatlantirish orqali mintaqa hududlarida sanoat ishlab chiqarishini mutanosib rivojlantirish taklifidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyuldagi PQ-276-son “Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 300 MVt boʻlgan shamol elektr stansiyasini qurish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2024-yil 05-martdagi PQ-116-son “Buxoro viloyatining Gʻijduvon tumanida quvvati 300 MVt boʻlgan shamol elektr stansiyasini hamda havo elektr uzatish tarmogʻini qurish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” hamda 2024-yil 05-noyabrdagi PQ-383-son “Navoiy viloyatida mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorlarining tegishli bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/48-2-24489-son maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida mintaqada sanoat ishlab chiqarishini mutanosib rivojlantirishga erishiladi;

mintaqada togʻ-kon va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlashga Navoiy viloyatining Uchquduq, Karmana va Nurota tumanlarida foydalanishga jalb etilmagan konlarni ishga tushirish hamda u yerda yaratilgan xomashyoni Samarqand viloyatining Kattaqoʻrgʻon, Narpay, Paxtachi tumanlarida tayyor qurilish materiallari sifatida qayta ishlash sanoatini tashkil etish orqali erishish taklifidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PQ-52-son “2023-2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorining tegishli bandlarini shakllantirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/48-2-24489-son maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi mintaqadagi foydali qazilma konlarini ishga tushirish hamda mavjudlaridan samarali foydalanish evaziga mintaqada togʻ-kon va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlashga erishiladi;

Zarafshon mintaqasi hududlarida sanoat ishlab chiqarish va agrar sektor o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga Navoiy viloyatining Nurota, Navbahor, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarini bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashtirib, ularda yetishtirilgan mahsulotlarni Samarqand viloyatining Jomboy va Oqdaryo tumanlarida meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish asosida qayta ishlash orqali erishish taklifidan Oliy ta'lim muassasalarining 60411200-Menejment yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Iqtisod, menejment va marketing asoslari" darsligiga kiritilgan (O'zbekiston milliy universiteti kengashining 2025-yil 28-noyabrdagi 3-sonli qarori asosida berilgan guvohnoma) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son "2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-apreldagi 222-son "2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarining tegishli bandlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/48-2-24489-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi mintaqaning ayrim hududlarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hamda imkoniyatlardan kelib chiqqan holda boshqa hududlarida uni qayta ishlashga ixtisoslashtirishga erishiladi;

mintaqa hududlarida xizmat ko'rsatish sohasini mutanosib rivojlantirishga Navoiy viloyatining Tomdi va Uchquduq tumanlarida "Safari", Muruntov koni hududida sanoat turizmi hamda Nurota tumanidagi Chashma, Chelak tumanidagi Imom Buxoriy, Buxoro shahri atrofidagi "Yetti pir" ziyoratgohlarini bir halqaga jamlash asosida ziyorat turizmini tashkil etish orqali erishish taklifidan Oliy ta'lim muassasalarining 60411200-Menejment yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Iqtisod, menejment va marketing asoslari" darsligiga kiritilgan (O'zbekiston milliy universiteti kengashining 2025-yil 28-noyabrdagi 3-sonli qarori asosida berilgan guvohnoma) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi PQ-430-son "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 10-bandi, "d" kichik bandini, 11 va 12-bandlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/48-2-24489-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish maqsadida turizm xizmatlari ko'rsatish sur'atlarini oshirish va shu orqali mintaqada iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga erishiladi;

mintaqada sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida mazkur tarmoqlarni rivojlantirishning 2029-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi 48,49,54,59-bandlarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/48-2-24489-son ma'lumotnomasi). Uning amaliyotga joriy qilinishi 2030-yilgacha

mintaqada sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etishga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 9 ta ilmiy anjumanlar, jumladan 4 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, shu jumladan 2 ta ilmiy monografiya, 1 ta darslik (hammualliflikda), O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta ilmiy maqola hamda nufuzli xorijiy jurnallarda 7 ta shuningdek, ilmiy-amaliy konferentsiyalarida 9 ta ma'ruza hamda tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismidan iborat. Dissertatsiya hajmi 294 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mintaqalarda iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashning konseptual asoslari**" deb nomlanib, unda iqtisodiy mutanosiblik va uni ta'minlash bo'yicha nazariy qarashlar evolyutsiyasi, uning namoyon bo'lish shakllari, turlari, buzilish sabablari hamda uni aniqlash mezonlari o'rganilgan.

"Mutanosiblik" - lotincha so'z bo'lib, nisbatlarning o'zaro mosligi, muvofiqlik, degan ma'noni anglatadi. Mutanosiblik rivojlanishda bo'lgan iqtisodiyotning barcha yo'nalishlarida amaliy jihatdan o'z o'rnini va ahamiyatiga ega bo'lgan umumiqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Mutanosiblikni talqin qilish borasida turli fikrlar mavjud bo'lsada, deyarli barcha iqtisodchi olimlar uning ilmiy tavsifini mantiqiy ravishda yalpi ichki mahsulotni turli tarmoqlar va sohalar o'rtasida oqilona taqsimlash zarurati bilan bog'laydi. Ma'lumki, jamiyatda shunday iqtisodiy masalalar mavjudki, ular iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Iqtisodchilarni azaldan qiziqtirib kelgan shunday muhim masalalardan biri - iqtisodiy mutanosiblik muammosi bo'lib, u bir tomondan, jamiyatni ijtimoiy larzalarsiz, iqtisodiy inqirozlarsiz rivojlantirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, inflyatsiyani pasaytirish, bandlikni ta'minlash, real iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini oshirish kabi strategik masalalarga bevosita e'tibor qaratadi.

Iqtisodiy mutanosiblik o'zida yuqori naflilik, samarali unumdorlik, zamonaviy kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va uning barqaror rivojlanishini tushuntiradigan nazariyadir. Iqtisodiy mutanosiblik to'g'risidagi umumiy tasavvurga ega bo'lgandan

keyin unga oid nazariyalar evolyutsiyasini ko‘rib chiqish va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mutanosiblikni ta‘minlash mexanizmining amal qilishi va uning namoyon bo‘lish shakllari turli omillarga bog‘liq. Masalan, bularga ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, texnik-tashkiliy munosabatlar tizimining ichki mohiyati, muvozanatlilik, rejalilik, marketing hamda oqilona tashkil etilgan iqtisodiy nisbatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy mutanosiblikning namoyon bo‘lish shakllari⁷.

Iqtisodiy mutanosiblik tizimi shunchalik murakkabki, tizimning qaysi bir bo‘g‘inida nisbatlar o‘zgarsa, bu holat iqtisodiyotning boshqa bo‘g‘inlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi va bu to‘lqinsimon harakat yo‘nalishiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy mutanosiblikning buzilishiga tashqi omillar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu tashqi savdoning tarkibi, ya‘ni eksport va import miqdori bo‘lib, agar tashqi savdo balansi aktiv bo‘lsa bu holat mamlakat ichidagi makro, mikroiqtisodiy mutanosiblikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, iqtisodiy mutanosiblikning buzilishi bu - yalpi ichki mahsulot o‘sishi sur‘ati yoki ijtimoiy - iqtisodiy ishlab chiqarish pasayishidir. Agar yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish hajmida pasayish tendensiyasi kuzatilsa – bu ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o‘rtasida jiddiy nomutanosiblik borligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy mutanosiblik buzilishiga sabab bo‘ladigan omillarni bilish va anglash kelajakda ijtimoiy - iqtisodiy inqirozlar hamda noroziliklar kelib chiqishi kabi salbiy hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Hududlararo iqtisodiy mutanosibliklarni aniqlash uslubiyati”** deb nomlangan bo‘lib, unda takror ishlab chiqarish jarayonining hududlar o‘rtasidagi mutanosibligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy mutanosiblikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, hududlarning mutanosib rivojlanish darajalarini hisoblash uslubiyati masalalariga asosiy e‘tibor qaratilgan.

Hududiy mutanosibliklarni turli usullar yordamida aniqlash va tadqiq etish mumkin. Bir necha o‘n yillar davomida mahalliy amaliyotda makro darajada takror

⁷ Muallif tomonidan tuzildi.

ishlab chiqarish jarayonidagi mutanosibliklarni o'rganishda ma'lumot manbayi bo'lib mintaqaviy statistika va yordamchi vosita sifatida mintaqaviy rivojlanishdagi ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni o'rganish hisoblangan. Mintaqaviy hisobot tadqiqot obyekti sifatida hali aniq chegaralarga ega emas, uning fundamental qoidalari to'liq ishlab chiqilmagan.

Mintaqalar rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan qator ko'rsatkichlar hududiy statistik hisobotlarda o'z aksini topgan bo'lib, unda hududiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq masalalar ham ma'lum darajada ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, mintaqaviy hisobotlar hududiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi va mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish uchun miqdoriy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Mintaqalarning ijtimoiy - iqtisodiy holatini tadqiq etishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar quyidagicha guruhlash orqali amalga oshiriladi:

mintaqaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini va rolini ifodalaydigan ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichlar guruhining tahliliy ahamiyati shundaki, ular ma'lum bir hududning mamlakat iqtisodiyotidagi, shuningdek, uning alohida tarmoq va sohalaridagi o'rnini hamda roli haqidagi savollarga javob beradi;

hududlar o'zaro taqqoslash imkoniyatini beradigan birlamchi va sintetik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar;

mintaqa iqtisodiyotining ichki tuzilishi, ishlab chiqarish kuchlari va aholi punktlarining joylashuvi ko'rsatkichlari, tovarlar va xizmatlar oqimi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan guruhlar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mintaqaviy tahlil uchun axborot asosi bo'lib statistik ma'lumotlar tizimi hisoblanadi, chunki miqdoriy migratsiya qaydnomalarini to'plash va qayta ishlash usullari hali ham nomukammal holatda. Mintaqaviy hisobot tadqiqotlarning eng rivojlangan shakli bu hududlarning joriy ko'rsatkichlari hisobotidir.

Mintaqaviy mutanosibliklarni tahlil va tadqiq etishning navbatdagi balans usuli ham bugungi kunda keng qo'llaniladi. U takror ishlab chiqarish mutanosibliklarini tahlil qilish vositasi sifatida mintaqalarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi sharoitida hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jumladan, balans usulidan foydalanish mintaqaning jamlanma moddiy-moliyaviy balansi bilan integratsiyalashgan balanslar tizimini ifodalovchi ko'rsatkichlarni hududning har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uning moliyaviy asoslarini shakllantirish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Demak, iqtisodiy balans yordamida mintaqaning iqtisodiy - ijtimoiy va tabiiy tizimlari muvozanatini baholash mumkin, deb taxmin qilinadi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Zarafshon mintaqasi hududlari iqtisodiyot tarmoqlari tarkibiy tuzilishi va ularning o'zgarish xususiyatlari”** deb nomlanadi. Unda mintaqalar hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati, tabiiy-resurs salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari, sanoat ishlab chiqarish dinamikasi, agrar sektor holati hamda xizmatlar sohasida kechayotgan tendensiyalar kompleks tahlil qilingan. Mintaqaning hudud, aholi, sanoat, agrar va xizmatlar salohiyatidagi hududlararo farqlanishlar 2024-yil uchun qiyosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Zarafshon mintaqasi uchun xos ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarning taqsimoti⁸ (2024-yil)

Foizda	Yer maydoni		Aholisi		YAHM/YAIM		Sanoat		Qishloq xo'jaligi		Xizmatlar	
	min	resp	min	resp	min	resp	min	resp	min	resp	min	resp
Hududlar	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Samarqand	9,8	37,5	57,2	20,0	33,7	20,0	19,5	27,0	47,6	25,8	52,1	13,8
Navoiy	66,3		14,8		42,4		62,4		18,0			
Buxoro	24,9		28,0		23,9		18,1		34,4		29,8	

Jadval ma'lumotlari mintaqada yer maydoni, demografik tarkib, sanoat va agrar rivojlanish darajasida keskin farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, Navoiy viloyati katta hudud va resurs salohiyatiga ega bo'lgan sanoat hududi sifatida ajralib turadi; Samarqand viloyati aholi zichligi va xizmatlar sektorining ulushi bilan, Buxoro viloyati esa yoqilg'i-energetika va qayta ishlash yo'nalishlari bilan xarakterlanadi.

Zarafshon mintaqasi mamlakat markazida joylashgan bo'lib, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlarini o'ziga birlashtiradi. Mintaqaning umumiy maydoni 168,1 ming km² (respublika hududining 37,4 %), aholisi esa 2025-yil holatiga 7,18 mln kishini tashkil etib, respublikaning 19,9 % ni qamrab oladi. Tabiiy-iqlimiy sharoitlarning xilma-xilligi, Qizilqum cho'li va tog'li hududlardagi mineral zaxiralar mintaqaning iqtisodiy ixtisoslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini mamlakat YAIMidagi ulushi to'liq namoyon qiladi. Statistik ko'rsatkichlar mintaqaning aholi ulushiga nisbatan yuqoriligi bilan uning iqtisodiy ahamiyati va resurs salohiyatini ifoda etadi. Mintaqalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi dinamikasi 2000-2024-yillarda barqaror tendensiyani aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston mintaqalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi⁹ (2000-2024-yillar)

Mintaqalar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Resp.	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Farg'ona	26,3	22,8	20,1	21,6	20,3	20,0	20,4	20,5	19,7
Toshkent	25,7	26,0	27,3	27,3	30,5	31,9	31,8	32,0	33,7
Mirzacho'l	5,6	6,3	5,9	6,2	5,9	5,9	5,8	5,9	5,6
Zarafshon	20,6	22,9	23,5	21,8	23,1	22,6	22,3	22,3	22,7
Janubiy	13,4	14,3	15,6	14,9	11,7	11,5	11,2	11,2	10,6
Quyi Amudaryo	8,4	7,8	7,7	8,2	8,4	8,2	8,4	8,0	7,6


Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning ayrim mintaqalarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yillar davomida o'zgarib kelmoqda. Jumladan, Zarafshon mintaqasida 2000-yilda – 20,6 % bo'lib, 2024-yilda esa – 22,7 % ni tashkil etdi. Bu yerda sust tebranuvchan o'sishni kuzatishimiz mumkin.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi 2000-2024yillar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi 2000-2024yillar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mintaqada sanoat yoki tabiiy resurslarga oid holda iqtisodiyot rivojlanayotganligi seziladi.

O‘zbekistonda sanoat quvvatlarining mintaqalar bo‘yicha joylashuvi, sanoatlashuv markazlarining o‘zgarishi va hududlar o‘rtasidagi sanoat salohiyati nomutanosibligini dinamikada kuzatish imkonini beradi. Ayniqsa, Zarafshon mintaqasining ulushi o‘zgarish trayektoriyasi sanoat rivojlanishi markazlarining Markaziy qismga siljishi va Navoiy-Buxoro-Samarqand yo‘nalishida yangi sanoat poyasi shakllanayotganini aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm. Respublika sanoat sohasida Zarafshon mintaqasining ulushi¹⁰

2-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Zarafshon mintaqasi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda mamlakat sanoat tarmog‘ining strategik “ikkinchi poyasi” sifatida shakllanayotgan bo‘lib, uning ulushi 2000-2010-yillardagi nisbiy pasayishdan so‘ng 2015-2024-yillarda barqaror o‘shish fazasiga o‘tgan. Bu holat, bir tomondan, Navoiy va Buxoro viloyatlaridagi mineral-xomashyo bazasiga tayanib yuqori qo‘shilgan qiymatli sanoat tarmoqlarini rivojlantirish natijasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Zarafshon mintaqasini respublika hududiy mehnat taqsimotida yuqori sanoatlashgan makon sifatida mustahkamlayotganini tasdiqlaydi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ham mintaqa respublika iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. 2024-yilda uning ulushi - 26,1 %. Bu ko‘rsatkich mavjud agrar salohiyatning aholisiga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatadi. Mintaqa miqyosida agrar rivojlanish 2000-2024-yillarda barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan (3-jadval).


¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2000-2024yillar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O‘zbekiston mintaqalarining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlaridagi ulushi¹¹ (2000-2024-yillar)

Mintaqalar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Resp.	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Farg‘ona	30,4	26,4	24,3	26,3	26,3	26,4	27,2	27,1	26,5
Toshkent	13,2	10,9	11,8	10,9	9,7	9,9	9,7	9,8	9,6
Mirzacho‘l	8,5	9,7	9,3	9,4	9,8	10,0	10,2	9,9	9,9
Zarafshon	22,9	25,9	29,1	26,8	26,7	26,7	25,4	25,6	26,1
Janubiy	15,7	17,4	16,1	17,1	17,0	16,7	16,8	17,3	17,4
Quyil Amudaryo	9,3	9,7	9,4	9,5	10,5	10,3	10,8	10,3	10,4

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqaning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi 2000-2024-yillar oralig‘ida barqaror o‘shish holatini ko‘rsatib kelmoqda.

2000-2024-yillar davomida O‘zbekiston mintaqalarining xizmat ko‘rsatish sohasidagi ulushi dinamikasi xizmatlar sektori rivojining hududlar kesimida qanday shakllanayotganini ko‘rsatib beradi. Keltirilgan ko‘rsatkichlar xizmatlar tarmog‘idagi o‘shish sur‘atlari va mintaqalar o‘rtasidagi nomutanosiblik darajasini baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, xizmatlar ulushining yillar bo‘yicha o‘zgarishi iqtisodiy faollikning qaysi hududlarda jamlanayotganini aniqlashda muhim mezon hisoblanadi. Ayniqsa, Zarafshon mintaqasining ulushi dinamikasi hududda xizmatlar sektorida kechayotgan tarkibiy siljishlar, iqtisodiy ixtisoslashuvning shakllanishi va rivojlanish yo‘nalishlarini namoyon etadi. Xizmatlar sohasidagi ushbu o‘zgarishlar 3-rasmda aks ettirilgan.



3-rasm. Respublika xizmat ko‘rsatish sohasida Zarafshon mintaqasining ulushi¹²

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2000-2024yillar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2000-2024yillar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki Zarafshon mintaqasining xizmat ko'rsatish sohasidagi ulushi barqaror, ammo sekin qisqaruvchi tendensiyani namoyon etmoqda. 2000-2015-yillarda ulush 15,1-15,4 % atrofida bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 15,3 %, 2021-yilda 15,5 % qayd etilgan. Biroq, 2022-2024-yillarda bu ko'rsatkich 14,1 % va 13,8 % gacha pasaygan. Bu pasayish xizmatlar sektoridagi o'sish sur'atlarining boshqa hududlarga nisbatan susayganini ko'rsatadi. Mintaqada Samarqandning yirik turizm markazi sifatidagi roli xizmatlar sektori ulushining yuqoriligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, Buxoro va Navoiy viloyatlarida xizmatlar ulushining pastligi mintaqaviy umumiy ko'rsatkichni pasaytiruvchi omilga aylanadi. Taqqoslash uchun, Mirzacho'l (3-4 %) va Quyi Amudaryo (6-7 %) hududlariga nisbatan Zarafshonning xizmat ko'rsatish salohiyati ancha yuqori ekanligi ko'rinadi. Ammo, Toshkent bilan solishtirganda, Zarafshon ulushi 3,5-3,7 barobar kam. Keltirilgan ma'lumotlar, xizmatlar segmentida savdo va logistikadan ijtimoiy va innovatsion xizmatlarga o'tish tendensiyasini ko'rsatadi. Biroq hududlararo rivojlanish sur'atidagi nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda: markaziy shaharlar yetakchi, chekka tumanlarda esa o'sish sur'ati past.

Umuman olganda, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar tarmoqlaridagi mazkur o'zgarishlar Zarafshon mintaqasining iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib, hududiy mutanosiblikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhim umumlashtirmalarni berishga asos yaratadi.

Dissertatsiya ishining to'rtinchi bobi "**Mintaqa hududlarida iqtisodiy mutanosiblikka ta'sir etuvchi omillar tahlili va ularning o'zgarish tendensiyalari**" deb nomlangan bo'lib, unda Zarafshon mintaqasi hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir qiluvchi omillar va ularning o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqot ishida mintqa hududlarida iqtisodiyotning soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir etuvchi omillar sifatida sanoatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, sanoat mahsulotlari eksporti, YAIM deflyatori, elektr ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo'jaligi ekin maydoni, qishloq xo'jaligida bandlar soni, aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xizmat ko'rsatishda bandlar soni hamda xizmat ko'rsatishda tadbirkorlik subyektlari soni kiritilgan. Tadqiqot bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik matritsasi ishlab chiqildi (4-jadval).

4-jadval

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro korrelyatsion matritsasi¹³

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	Significant
(1) <i>Logindustr_prod</i>	1,000						
(2) <i>loginvest_cap_ind</i>	0,8467 (0,0000)	1,000					***
(3) <i>logexport_ind</i>	0,7742 (0,0000)	0,5678 (0,0001)	1,000				***
(4) <i>logGDP_infl_def</i>	0,6040 (0,0845)	0,3475 (0,0280)	-0,3314 (0,0367)	1,000			*
(5) <i>logind_el_energ</i>	0,8666 (0,0000)	0,6945 (0,0000)	0,8866 (0,0000)	-0,3530 (0,0254)	1,000		***

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

¹³ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Jadval ma'lumotlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar o'rtasida mustahkam, teskari va sezilarli darajada korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Barcha o'zgaruvchilar bo'yicha ijobiy korrelyatsiya sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini ko'rsatgan. Shuningdek, jadval bo'yicha p-qiymatining 0,05 dan kichik ekanligi, korrelyatsion koeffitsiyent uchun uning statistik ahamiyatlilik darajasi sharti bajarilganligini ifodalagan. Tadqiqotning navbatdagi bosqichida ko'p omilli chiziqli (LS) modelidan foydalangan holda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning regression modeli ishlab chiqildi (5-jadval).

5-jadval

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning ko'p omilli chiziqli (LS) modeli asosida regression tenglama ko'rsatkichlari¹⁴

<i>Logindustr_prod</i>	<i>Coef.</i>	<i>St.Err.</i>	<i>t-value</i>	<i>p-value</i>	<i>[95% Conf</i>	<i>Interval]</i>	<i>Sig</i>
<i>loginvest_cap_ind</i>	.689	.051	13.58	0	.586	.792	***
<i>logexport_ind</i>	.362	.077	4.68	0	.205	.519	***
<i>logGDP_infl_defl</i>	-.139	.1	-1.38	.076	-.343	.065	*
<i>logInd_el_energ</i>	1.055	.487	2.17	.037	.066	2.043	**
<i>Constant</i>	-7.017	4.032	-1.74	.091	-15.201	1.168	*
<i>Mean dependent var</i>		10.484	<i>SD dependent var</i>		0.845		
<i>R-squared</i>		0.878	<i>Number of obs</i>		40		
<i>F-test</i>		733.362	<i>Prob > F</i>		0.000		
<i>Akaike crit. (AIC)</i>		-68.548	<i>Bayesian crit. (BIC)</i>		-60.104		
*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$							

Ko'p omilli chiziqli (LS) modeli formula ko'rsatkichlari quyida keltirilgan.

$$\log(\text{industr_prod}) = -7.01 + 0.68\log(\text{invest_cap_ind}) + 0.36\log(\text{export_ind}) - 0.13\log(\text{GDP_infl_defl}) + 1.05\log(\text{ind_el_energ}) + \varepsilon \quad (2)^{15}$$

Ko'p omilli chiziqli (LS) modelining umumiy tavsifi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi o'zgaruvchining p-qiymati 0,05 dan kichik bo'lib, unga ko'ra natijaviy omilning 5% ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan aniq prognozini ko'rsatadi. R-kvadrat qiymati: R-kvadrat qiymati 0,8781 ni tashkil etib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning 87,81% bilan modelning sifat ko'rsatkichini ta'minlaydi. R-kvadratning yuqori qiymatini tashkil etilishi ekonometrik modelning kuzatilgan ma'lumotlarga kuchli ta'sirini anglatadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Zarafshon mintaqasida sanoatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmining bir foizga ortishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,68 % ga ortishiga erishiladi. Ushbu mintaqada sanoat mahsulotlari eksporti hajmining bir foizga ortishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,36 %ga ortishiga sabab bo'ladi. Milliy iqtisodiyotda inflyatsiya, YAIM deflyatorining bir foizga ortishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,13 % ga kamayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, mintaqada elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining bir foizga ortishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1,05 % ga ortishiga olib keladi.

¹⁴ Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishida mintaqada sanoat tarmoqlari dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida mazkur tarmoqlarni rivojlantirishning 2029-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (6-jadval).

6-jadval

2025-2029-yillar uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi prognoz ko'rsatkichlari¹⁶ (mlrd so'mda)

Yillar	Pessimistik prognoz	Optimistik prognoz	Prognoz
2025	203 718,26	208 165,74	205 942,00
2026	226 599,16	231 046,64	228 822,90
2027	248 039,86	252 487,34	250 263,60
2028	268 373,56	272 821,04	270 597,30
2029	287 856,46	292 303,94	290 080,20

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ARIMA (1,1,1) modeli asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2025-2029-yillarda tasodifiy ichki va tashqi omillarini hisobga olmagan holda 2025-yilda 205 942,00 mlrd so'm, 2026-yilda 228 822,90 mlrd so'm, 2027-yilda 250 263,60 mlrd so'm, 2028-yilda 270 597,30 mlrd so'm hamda mos ravishda 2029-yilda 290 080,20 mlrd so'mga yetishi prognoz qilindi. Mazkur tadqiqot ishida Zarafshon mintaqasi hududlarida nafaqat sanoat, shu bilan birga qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ham rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi (7-8-jadvallar).

7-jadval

2025-2029-yillar uchun aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi hajmi prognoz ko'rsatkichlari¹⁷ (mln so'mda)

Yillar	Pessimistik prognoz	Optimistik prognoz	Prognoz
2025	20 233,21	22 652,53	21 442,87
2026	21 546,75	23 966,07	22 756,41
2027	22 844,11	25 263,43	24 053,77
2028	24 144,22	26 563,54	25 353,88
2029	25 443,99	27 863,31	26 653,65

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ARIMA (2,1,2) modeli asosida aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi 2025-2029-yillarda tasodifiy endogen va ekzogen omillarini hisobga olmagan holda 2025-yilda 21 442,87 mln so'm, 2026-yilda 22 756,41 mln so'm, 2027-yilda 24 05,77 mln so'm, 2028-yilda 25 353,88 mln so'm hamda mos ravishda 2029-yilda 26 653,65 mln so'mga yetishi prognoz qilindi.

8-jadval

2025-2029-yillar uchun YAHMda xizmatlar ulushi hajmi prognoz ko'rsatkichlari¹⁸ (mlrd so'mda)

Yillar	Pessimistik prognoz	Optimistik prognoz	Prognoz
2025	110 472,16	117 317,61	113 894,9
2026	129 741,64	136 587,14	133 164,4
2027	150 129,88	156 975,31	153 552,6
2028	172 035,76	178 881,25	175 458,5
2029	195 208,48	202 053,91	198 631,2

¹⁶ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

¹⁷ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

¹⁸ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan ekonometrik model natijalariga ko'ra, YAHMda xizmatlar sohasi ulushi hajmi 2025-2029-yillarda tasodifiy ichki va tashqi omillarni inobatga olmagan holda 2025-yilda 113 894,9 mlrd so'm, 2026-yilda 133 164,4 mlrd so'm, 2027-yilda 153 552,6 mlrd so'm, 2028-yilda 175 458,5 mlrd so'm hamda mos ravishda 2029-yilda 198 631,2 mlrd so'mga yetishi prognoz qilindi.

Dissertatsiya ishining beshinchi bobi **“Zarafshon mintaqasi hududlari o'rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlanib, unda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi tarmoqlararo mutanosiblikni shakllantirishning amaliy mexanizmlari yoritilgan. Bobda mintaqaning sanoat salohiyati, energetik bazasi, agrar tarmoq istiqbollari va xizmatlar infratuzilmasini mutanosib rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Zarafshon mintaqasi iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan mamlakatda muhim strategik hudud hisoblanib, uning sanoat tarkibi ko'plab resurs tarmoqlari bilan bog'liq. Mintaqada sanoat ishlab chiqarishining barqarorligi, avvalo, energetika ta'minoti va tog'-kon resurslarining samarali o'zlashtirilishiga bog'liq. Shu bois qayta tiklanuvchi energiya manbalari shamol, quyosh va kichik GES loyihalarini rivojlantirish mintaqaning energiya xavfsizligini ta'minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Samarqand viloyati Nurobod tumani, Navoiy viloyati Nurota tumani va Buxoro viloyati G'ijduvon tumani tabiiy sharoitlari jihatidan ushbu loyihalarni amaliy tatbiq etish uchun eng muqobil hududlar sifatida belgilangan.

O'zbekistonda 2024-yilda energiya ishlab chiqarishning 11,5 foizi qayta tiklanuvchi manbalar hissasiga to'g'ri kelishi va 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni 25 foizga yetkazish maqsadi belgilangani, Zarafshon mintaqasida energiya ta'minotini hududlar kesimida mutanosib rivojlantirish zarurligini yanada dolzarb qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, muallif tomonidan taklif etilgan Samarqand viloyatining Nurobod, Navoiy viloyatining Nurota va Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan shamol, mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishni rag'batlantirish orqali mintaqa hududlarida sanoat ishlab chiqarishini mutanosib rivojlantirish yo'nalishi hududlardagi mavjud resurslar va sanoat tarmoqlari ehtiyojlari bilan to'la muvofiq keladi.

O'tkazilgan hisob-kitoblar mazkur yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlab, 2030-yilga qadar Zarafshon mintaqasida qo'shimcha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishga tushirish sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,9 trln so'mga yetkazish, 3,5 mingdan ziyod yangi ish o'рни yaratish va elektr ta'minotidagi uzilishlarni sezilarli kamaytirish imkonini berishi aniqlangan.

Mintaqaning sanoat rivojida tog'-kon va qurilish materiallari sohalari ham muhim o'rin tutadi. Ushbu tarmoq YAIMning 6-7 foizini tashkil etsa-da, u bilan bog'liq tarmoqlar orqali iqtisodiyotga ta'sir hajmi 20 foizdan oshadi. Bu holat sohaning o'zaro bog'liq ishlab chiqarish zanjirlari transport, qurilish, kimyo va energetika tarmoqlari bilan integratsiyalashganligini anglatadi. Shu bois, tog'-kon sanoati ulushining vaqt mobaynidagi dinamikasini o'rganish hududlar ixtisoslashuvi, resurslardan foydalanish samaradorligi va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik holatini aniq baholash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari Zarafshon mintaqasida togʻ-kon va qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda sanoat tarmoqlari oʻrtasidagi uzviylikni taʼminlash uchun foydalanishga jalb etilmagan mineral xomashyo konlarini jalb etish va mavjudlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini yoʻlga qoʻyishni taqozo qiladi.

Muallif fikricha, Navoiy viloyati Uchquduq shahri atrofidagi koalini, Karmana tumanidagi bazalt va Nurota tumanidagi mineral tolasi kabi zaxira konlarini ishga tushirish hamda ulardan optimal foydalanish hisobiga mineral xomashyo bazasini yaxlit tizim sifatida rivojlantirish mumkin. Mos ravishda Samarqand viloyati Kattaqoʻrgʻon, Narpay va Paxtachi tumanlarida mavjud konlardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali qurilish materiallari sanoati uchun hududiy ixtisoslashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu hududlarda qayta ishlash quvvatlarini yangilash, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va logistika infratuzilmasini kuchaytirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, Buxoro viloyati Qorovulbozor, Shofirkon va Peshku tumanlarini tabiiy pardozebop tosh va gʻisht mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish maqsadga muvofiq. Mazkur hududlarda mineral resurslardan eksportga moʻljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish va kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali hududiy sanoat zanjirini mustahkamlash mumkin.

Natija sifatida, hududlar kesimida mineral xomashyo bazasi - qayta ishlash - tayyor mahsulot zanjirini integratsiyalashtirish uchun yagona logistika platformasini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy bogʻliqlikni kuchaytiradi, mahsulot tannarxini pasaytiradi va eksport hajmini oshiradi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish Zarafshon mintaqasida sanoat tarmoqlarini ratsional joylashtirish, mineral resurslardan samarali foydalanish va hududiy iqtisodiy mutanosiblikni taʼminlashga xizmat qiladi.

Zarafshon mintaqasi agrar tarmoqda ham mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega. Bogʻdorchilik, uzumchilik va meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash salohiyati yuqori boʻlgan hududlarda agroklastlar tashkil etish - hududlar oʻrtasida sanoat va qishloq xoʻjaligi tarmoqlari oʻrtasidagi mutanosiblikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yoʻnalishni amalga oshirish agrar mahsulotlar qiymat zanjirini uzluksiz shakllantirish hamda qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishni talab etadi.

Shuni hisobga olgan holda, muallif Zarafshon mintaqasi hududlarida qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash sohasi oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlashga Navoiy viloyatining Nurota, Navbahor, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarini bogʻdorchilik va uzumchilikka ixtisoslashtirib Samarqand viloyatining Jomboy va Oqdaryo tumanlarida ularni qayta ishlashga moʻljallangan agroklastlarni tashkil etish orqali erishish taklifini ilgari suradi. Taklif etilgan ushbu agroklaster modelini joriy etish orqali hududlar kesimida agrar mutanosiblik taʼminlanib, ishlab chiqarish-qayta ishlash-eksport zanjirida samaradorlik oshadi, yangi ish oʻrinlari yaratiladi va mintaqaning umumiy iqtisodiy mutanosibligi taʼminlanadi.

Mintaqada oziq-ovqat xavfsizligi tizimida hududiy mutanosiblikka erishish uchun agro-innovatsiya modelini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu

model qiymat zanjiri bo‘ylab integratsiyani kuchaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish, resurs tejamkorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash hamda innovatsion kooperatsiya tamoyillarini amalga tatbiq etishni nazarda tutadi. Amaliyotga personallashtirilgan agrotexnika va raqamli boshqaruv usullarini keng joriy etish esa agrar tarmoq samaradorligini keskin oshirishi mumkin. Xususan, ushbu texnologiyalar hosildorlikni 15–20 foizga oshirish, suv resurslari sarfini 25–30 foizga qisqartirish va mehnat unumdorligini 1,4–1,6 barobarga ko‘tarish imkonini beradi.

Muallif fikricha, mintaqada bunday natijaga Buxoro viloyatining G‘ijduvon va Romitan, Navoiy viloyatining Karmana va Qiziltepa hamda Samarqand viloyatining Nurobod va Urgut tumanlarida personallashtirilgan qishloq xo‘jaligi texnikalaridan, yangi samarador navlar va mahalliy xomashyodan tejamkor foydalanishga qaratilgan innovatsion hududlarni shakllantirish orqali erishish mumkin. Ushbu innovatsion yondashuvning kompleks tatbiqi hosildorlikni oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ishchi kuchining samaradorligini yaxshilash orqali mintaqaning agrar rivojlanish trayektoriyasini mustahkamlaydi. Natijada, Zarafshon mintaqasi oziq-ovqat xavfsizligi tizimida yuqori barqarorlikka ega, raqobatbardosh va texnologik jihatdan zamonaviy agrar hududga aylanishi mumkin.

Zarafshon mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasini mutanosib rivojlantirishda turizm tarmog‘ining o‘rni alohida e‘tiborga loyiqdir. Turizm transport, savdo, umumiy ovqatlanish, madaniy tadbirlar, axborot xizmatlari, bank va sug‘urta tizimlari kabi ko‘plab munosabatlarni o‘z ichida qamrab oluvchi murakkab servis infratuzilmasi hisoblanadi. Shu jihatdan, turizm hududiy iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi, yangi ish o‘rinlari yaratuvchi, kichik biznes salohiyatini oshiruvchi va aholi daromadlarini diversifikatsiya qiluvchi strategik tarmoq sifatida namoyon bo‘ladi.

Zarafshon mintaqasida turizm rivojlanishining o‘ziga xosligi - hududlarning tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va sanoat xususiyatlari turlicha bo‘lgani holda, ularni yagona turistik makon sifatida integratsiya qilish imkoniyati mavjudligidir. Shundan kelib chiqib, mintaqadagi turizm turlarining mavjud salohiyatidan samarali foydalanish orqali xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini yanada rivojlantirish imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqot doirasida, mintaqadagi turizm imkoniyatidan samarali foydalanish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish va hududlar o‘rtasida mutanosib rivojlanishni ta‘minlash uchun ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv ishlab chiqildi.

Muallifning fikricha, Navoiy viloyatining Tomdi va Uchquduq tumanlarida “Safari”, Muruntov koni hududida sanoat turizmi hamda Nurota tumanidagi “Chashma”, Chelak tumanidagi Imom Buxoriy, Buxoro shahri atrofidagi “Yetti pir” ziyoratgohlarini bir halqaga jamlash asosida ziyorat turizmini tashkil etish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Zarafshon mintaqasida turizmni hududiy klasterlashtirish va tarmoqlararo integratsiyalash modelini shakllantirish orqali hududlar o‘rtasidagi turistik resurslar turfaligini raqobat sifatida emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi mexanizm ko‘rinishida qarash imkonini beradi. Masalan, Tomdi va Uchquduqda safari yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali ekoturizm salohiyati oshadi; Muruntovda sanoat turizmining

tashkil etilishi respublikamizda kam uchraydigan unikal turistik mahsulotni shakllantiradi; Nurota, Chelak va Buxorodagi ziyorat obyektlarini birlashtirish esa Markaziy Osiyo miqyosida turizmning yangi ziyorat-markaziy yoʻnalishiga asos yaratadi.

Bunday turistik halqa hududlar oʻrtasida xizmatlar sektorida talab va taklif mutanosibligini taʼminlaydi, logistika xarajatlarini kamaytiradi va turistik oqimning barqarorligini oshiradi. Shuningdek, yagona marshrut doirasida savdo, ovqatlanish, transport, gidlik, mehmonxona va madaniy xizmatlar koʻlamini kengaytirib, Zarafshon mintaqasining iqtisodiy faolligini yuqori bosqichga koʻtarish imkonini beradi.

Amalga oshirilgan senariy tahlillari shuni koʻrsatadiki, “Ziyorat, safari va sanoat turizmi halqasi”ni joriy qilish 2030-yilga borib turistlar sonini 8,3 mln nafarga yetkazish, turistik xizmatlar hajmini 1,85 mlrd dollarga oshirish va 95 mingga yaqin yangi ish oʻrni yaratish imkonini beradi (9-jadval). Bu koʻrsatkichlar mintaqaning xizmatlar infratuzilmasida, mehmonxona biznesida, transport va logistika zanjirida va kichik biznes faoliyatida sezilarli ijobiy oʻzgarishlarga olib keladi.

9-jadval

Ziyorat, safari va sanoat turizmi halqasini joriy etgan taqdirda iqtisodiy samaralar¹⁹ (senariy tahlili)

Koʻrsatkichlar	Hozirgi holat (2024)	Prognoz holat (2030)
Yillik turistlar soni	5 mln 920 mig	8 mln 300 ming
Turistik xizmatlar hajmi AQSH dollari	940 mln	1 mlrd 850 mln
Yangi ish oʻrinlari soni	56 ming kishi	95 ming kishi
Mehmonxonalar soni	285 ta	350 ta

Umuman olganda, sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish tarmoqlari boʻyicha taklif etilgan mutanosiblik mexanizmlari Zarafshon mintaqasida tarmoqlar oʻrtasidagi iqtisodiy mutanosiblikni taʼminlashga qaratilgan kompleks yondashuvni shakllantiradi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan takliflar sanoatning qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish, agrar sohada innovatsion-texnologik yangilanishni ragʻbatlantirish va xizmatlar segmentida integratsiyalashgan servis platformasini barpo etish imkonini yaratadi. Shu orqali Zarafshon mintaqasining milliy iqtisodiyotda yuqori qiymatga ega resurs markazi, agrar-innovatsion hudud va diversifikatsiyalashgan xizmatlar majmuasi sifatida shakllanishi taʼminlanadi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Mutanosiblik doimo takrorlanib turuvchi jarayon sifatida oʻzida jamiyat iqtisodiy hayotining barcha tomonlarining oʻzaro muvofiqligini qayd etuvchi indikator hisoblanib, iqtisodiy muvozanat qonunini roʻyobga chiqarishning asosiy mexanizmi sifatida yuzaga chiqadi.

2. Iqtisodiy rivojlanish hududlar oʻrtasida muayyan darajadagi oʻzaro bogʻliqlikni talab qiladi. Mutanosiblikning mamlakat miqyosidagi umumiy taʼsiri

¹⁹ Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi 2024-yil maʼlumotlari hamda muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

doimo to'liq namoyon bo'lmasada, viloyat, tuman va shaharlar darajasida ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, kooperatsiya va kommunikatsiya aloqalari orqali bu bog'liqlikning ahamiyati aniq ko'rinadi.

3. Hududlararo nomutanosiblik sharoitida rivojlangan hududlar tayyor mahsulot ishlab chiqarishga, rivojlanmagan hududlar esa xomashyo va butlovchi mahsulotga ixtisoslashib, o'zaro ayriboshlashda noekvivalentlik yuzaga keladi. Bu iqtisodiy qaramlikni kuchaytirib, hududlar aholisi turmush darajasidagi tafovutlarni oshiradi. Natijada kam rivojlangan hududlardan rivojlanganlar tomon mehnat migratsiyasi ortib boradi.

4. Hududiy takror ishlab chiqarishning xususiyatlari sifatida, uning ikkita jihati mavjudligi: mintaqalararo va mintaq ichida, bu hududiy va mintaqaviy boshqaruv subyektini aniq ajratish imkonini beradi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mintaqalararo jihati uchun hududiy mehnat taqsimoti, davlat investitsiyalarini taqsimlash va tumanlararo integratsiya markaziy masala hisoblanadi.

5. Mintaqalar rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan qator ko'rsatkichlar hududiy statistik hisobotlarda o'z aksini topgan bo'lib, unda hududiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq masalalar ham ma'lum darajada ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, mintaqaviy hisobotlar hududiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi va mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish uchun miqdoriy ma'lumotlarni taqdim etadi.

6. Zarafshon mintaqasi mamlakatning sharq va g'arbiy qismini bog'lovchi asosiy transport magistralari orqali strategik ahamiyat kasb etadi. Samarqand, Navoiy va Buxoroda joylashgan xalqaro aeroportlar, temir yo'l stansiyalari va avtomagistralar mintaqaning ichki va tashqi aloqalarini mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Bu o'z navbatida, logistika, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari rivoji uchun zamin ham yaratadi.

7. Zarafshon vodiysi tabiiy iqlim va suv ta'minoti jihatidan qishloq xo'jaligi uchun juda qulay hudud hisoblanadi. Zarafshon daryosi orqali suv bilan ta'minlangan yerlarda bog'dorchilik, uzumchilik, paxtachilik va sabzavotchilik yuksak samara beradi. Samarqand va Buxoro viloyatlarida yuqori sifatli uzum, meva-sabzavotlar yetishtirilib, ichki bozordan tashqari eksportga ham yo'naltirish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, yaylov yerlarining ko'pligi mintaqada chorvachilik tarmog'ini keng qamrovli rivojlantirish imkonini beradi.

8. Samarqand viloyatining Nurobod, Navoiy viloyatining Nurota va Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan shamol, mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishni rag'batlantirish orqali mintaq hududlarida sanoat ishlab chiqarishini mutanosib rivojlantirish maqsadga muvofiq.

9. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan tadbirkorlik faoliyati Zarafshon mintaqasini milliy iqtisodiyotdagi energetik barqarorlik va hududlararo sanoat ishlab chiqarishi mutanosibligining asosiy markazlaridan biriga aylantiradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish tarmog'i tog'-kon sanoatidagi ish jarayonlarini barqaror ta'minlaydi, tog'-kon tarmog'i esa sanoat uchun xomashyo manbayini yaratadi.

10. Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida viloyatning agrar salohiyatidan samarali foydalanish, sohaviy ixtisoslashuvni kuchaytirish hamda qayta ishlash quvvatlarini kengaytirishga Nurota, Navbahor, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarida bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, intensiv texnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda qayta ishlash quvvatlarini yaratish orqali erishish maqsadga muvofiq.

11. Navoiy viloyatining Tomdi va Uchquduq tumanlarida safari turizmi yo‘nalishlari hamda Muruntov koni hududida sanoat turizmini rivojlantirish, Nurota tumanidagi Chashma ziyoratgohi, Samarqand viloyati Chelak tumanidagi Imom Buxoriy majmuasi va Buxoro shahri atrofidagi “Yetti pir” ziyoratgohlarini yagona turistik halqaga birlashtirish orqali mintaqada turizm va xizmat ko‘rsatish sohasini mutanosib rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

12. Mintaqada turizmning an’anaviy madaniy yo‘nalishlaridan tashqari, ziyorat, safari (cho‘l) va sanoat turizmi kabi noan’anaviy yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni diversifikatsiya qilish imkoniyati yuqori. Bunday integratsiyalashgan turizm halqasi nafaqat xizmatlar hajmini kengaytiradi, balki hududdagi mehnat bozori, infratuzilma va kichik biznes faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.I.01.11 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА, УПОЛНОМОЧЕННЫЙ ПРИСУЖДАТЬ
УЧЕНЫЕ СТЕПЕНИ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

МУРТАЗАЕВ ИСАБЕК БАЗАРБАЕВИЧ

**НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТИ
МЕЖДУ ТЕРРИТОРИЯМИ ЗАРАФШАНСКОГО РЕГИОНА**

08.00.12 – Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2025 год

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2024.1.DSc/Iqt666.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Мамбетжанов Кахрамон Курбандурдиевич доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Рузметов Бахтияр доктор экономических наук, профессор Валиев Бобур Батирович доктор экономических наук, профессор Явмутов Дилшод Шоимардонкулович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский государственный экономический университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/30.12.2019.I.01.11 при Национальном университете Узбекистана 00 декабря 2025 года в 14:00. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24; (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-90-80; e-mail: rector@nuu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под номером 109). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24; (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-90-80; e-mail: rector@nuu.uz.

Автореферат диссертации распространен ?-декабря 2025 года.

(Протокол регистрационного реестра №00 от «00» декабря 2025 года)

А.М. Садыков
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Х.Х. Режапов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

А.В. Вахабов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современной глобальной экономике обеспечение сбалансированного регионального развития рассматривается как один из ключевых факторов национальной устойчивости и инклюзивного роста. Как отмечается в научных исследованиях, «когда факторы производства, транспортно-логистическая система, человеческий капитал и рыночная инфраструктура распределены между территориями неравномерно, драйверы экономического роста страны в целом ослабевают в среднем на 15-20 процентов»²⁰, усиливается уровень социального неравенства и снижается региональный конкурентный потенциал. В этой связи обеспечение экономической сбалансированности между регионами требует обновления эффективных механизмов, направленных на рациональное распределение ресурсов, укрепление межотраслевых связей и корректное направление региональной специализации.

В мировой научной практике активизируются исследования, связанные с выявлением и адресным решением локальных проблем, препятствующих сбалансированному экономическому развитию регионов. Особое внимание уделяется вопросам сокращения социально-экономической дифференциации между территориями, совершенствованию методик оценки качественных показателей регионального развития, а также оптимизации территориальной сбалансированности промышленности, сельского хозяйства и сферы услуг за счет диверсификации региональных экономик.

В Узбекистане за последние годы проводятся последовательные реформы, направленные на ускорение регионального развития, расширение индустриальной базы, поддержку малого бизнеса и сферы услуг. Национальные программы предусматривают задачи по углублению региональной специализации, выявлению конкурентных преимуществ городов и районов, усилению кооперации в формате кластеров и индустриальных зон. Вместе с тем, несмотря на проводимые реформы, сохраняются такие проблемы, как «...межотраслевая несбалансированность регионов, неэффективность распределения ресурсов, чрезмерная концентрация потоков инвестиций и инноваций»²¹. С этой точки зрения Зарафшанский регион привлекает особое внимание как стратегически важное пространство для экономики страны. «Одновременное ускоренное развитие промышленности, аграрного сектора, сферы услуг и проектов возобновляемой энергетики в регионе»²² приобретает критическое значение. Однако темпы развития отраслей и территорий остаются неоднородными: в Навоийской области наблюдается высокая концентрация промышленного потенциала, в Самаркандской области быстрыми темпами

²⁰ World Bank (2023). World Development Report: Migrants, Refugees, and Societies. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2023>

²¹ World Bank (2023). Uzbekistan Systematic Country Diagnostic: Pathways to Inclusive Growth. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/933471650320792872/pdf/Toward-a-Prosperous-and-Inclusive-Future-The-Second-Systematic-Country-Diagnostic-for-Uzbekistan.pdf>

²² Решение Президента Республики Узбекистан от 22 июля 2024 г. № ПК-276 «О мерах по реализации инвестиционного проекта по строительству ветроэлектростанции мощностью 300 МВт в Нурота-районе Навоийской области»

развивается сфера услуг и туризм, тогда как Бухарская область сохраняет ведущие позиции в аграрной специализации.

Такая ситуация формирует предпосылки для возникновения проблем, связанных с миграцией трудовых ресурсов, ростом логистических затрат, разрывами в цепочках добавленной стоимости и территориальной диспропорцией инвестиционной активности. В связи с этим среди приоритетных задач стоят вопросы «...сбалансированного развития экономики Зарафшанского региона исходя из его природно-экономического потенциала, диверсификации промышленности регионов, углубления специализации сельского хозяйства, повышения эффективности использования природных ресурсов, а также вывода сферы услуг на высокий уровень развития»²³.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени способствует реализации задач, предусмотренных следующими нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан: Указом Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2022 года № ПФ-165 «О мерах по организации реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы»; Указом Президента от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии “Узбекистан-2030”»; Постановлением Президента от 12 декабря 2024 года № ПК-430 «О дополнительных мерах по социально-экономическому развитию Навоийской области»; Постановлением Президента от 22 июля 2024 года № ПК-276 «О мерах по реализации инвестиционного проекта по строительству ветроэлектростанции мощностью 300 МВт в Нуратинском районе Навоийской области»; Постановлением Президента от 5 марта 2024 года № ПК-116 «О мерах по реализации инвестиционного проекта по строительству ветроэлектростанции мощностью 300 МВт и воздушной линии электропередачи в Гиждуванском районе Бухарской области»; Постановлением Президента от 5 ноября 2024 года № ПК-383 «О дополнительных мерах по строительству микро- и малых гидроэлектростанций в Навоийской области»; Постановлением Президента от 10 февраля 2023 года № ПК-52 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию Навоийской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2023–2024 годах»; Постановлением Кабинета Министров от 27 апреля 2022 года № 217 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Навоийской области и дальнейшему улучшению уровня жизни населения на 2022–2026 годы»; Постановлением Кабинета Министров от 28 апреля 2022 года № 222 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Самаркандской области и дальнейшему улучшению уровня жизни населения на 2022-2026 годы», а также другими нормативно-правовыми актами.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I – «Духовно-

²³ Решение Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 апреля 2022 г. № 217 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Навоийской области и дальнейшему улучшению уровня жизни населения на 2022–2026 годы»

нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» развития науки и технологий Республики Узбекистан.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.

Проблематика обеспечения экономической сбалансированности между регионами в мировой научной среде широко изучается в рамках теорий регионального развития, экономического роста и территориального управления. Исследования в данной области нашли отражение в аналитических докладах и проектах таких международных организаций, как Программа развития ООН (ПРООН), Всемирный банк, Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), Европейский банк реконструкции и развития (ЕБРР), Международная организация труда (МОТ), а также в работах ведущих научных центров — Гарвардского университета, Лондонской школы экономики (LSE), Оксфордского, Кембриджского, Стэнфордского и Токийского университетов.

Результаты научных исследований, проводимых на глобальном уровне по вопросам разработки путей обеспечения экономической сбалансированности между регионами, совершенствования институциональных механизмов и определения её приоритетных направлений, позволили сформулировать ряд важных научных выводов. В частности, были разработаны усовершенствованные модели «центр–периферия» для обеспечения устойчивости регионального экономического роста (Лондонская школа экономики, Великобритания); обоснована значимость механизмов «инклюзивного роста» в сокращении межрегиональных экономических различий (Всемирный банк и ОЭСР, 2022 г.); разработаны подходы к балансировке территориального распределения экономических ресурсов посредством кластерной политики и стратегии «умной специализации» (научные центры Европейского Союза, 2021–2024 гг.); а также проанализированы факторы достижения экономической сбалансированности на основе усиления институциональных механизмов регионального управления (Университет Оксфорда, Великобритания).

В современных условиях международные исследования в сфере обеспечения экономической сбалансированности регионов научно обосновывают необходимость интеграции инновационного развития и системы управления. Данные исследования направлены на совершенствование региональной политики на базе институциональных механизмов; обеспечение сбалансированного распределения экономических ресурсов между территориями; формирование точек инновационного роста на основе региональных кластеров и стратегии «смарт-специализации»; а также выявление путей снижения межрегиональных различий посредством развития социально-экономической инфраструктуры.

Степень изученности проблемы. Научно-теоретические аспекты сбалансированного развития региональной экономики, совершенствования отраслевой и территориальной структуры были исследованы в трудах зарубежных ученых - основателей теории региональной экономики: В. Айзарда,

